KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

OAK: 01-08/1819/6

www.herald.kokanduni.uz

FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MUVOZANATI: ILMIY YONDASHUVLAR TADRIJI

Zakirova Oisha Vohid qizi,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
“PR va Menejment” fakulteti dekani (PhD), dotsent.
ORCID: 0009-0007-0759-4840
oisha993wc@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil
Jurnal soni: 16-B
Maqola raqami: 58
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1867

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

fuqarolik jurnalistikasi, gender muvozanati, gender tengligi, raqamli media, media ishtiroki, axborot vakilligi, kommunikativ ta’sir, raqamli tafovut, media xavfsizligi, genderga sezgir jurnalistika

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatining shakllanishi va ushbu masalaga oid ilmiy yondashuvlarning tadrijiy rivojlanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda fuqarolik jurnalistikasining raqamli transformatsiyasi, gender ishtiroki, axborot vakilligi, kommunikativ ta’sir hamda raqamli xavfsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tizimli va qiyosiy yondashuvlar asosida ochib berilgan. Xalqaro statistik ma’lumotlar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida gender muvozanatini faqat miqdoriy nisbat bilan baholash yetarli emasligi asoslandi. Natijada gender muvozanatini raqamli kirish, media ishtiroki, axborot vakilligi, kommunikativ ta’sir hamda xavfsiz va barqaror ishtirokni qamrab oluvchi ko‘p bosqichli jarayon sifatida baholash taklif etildi. Tadqiqot xulosalari fuqarolik jurnalistikasida gender tengligini ta’minlashda teng raqamli imkoniyatlar, mazmuniy vakillik va xavfsiz kommunikativ muhitning hal qiluvchi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kirish. Raqamli kommunikatsiya muhitining kengayishi jurnalistik axborot ishlab chiqarish jarayonining institutsional chegaralarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Xususan, fuqarolarning yangilik yaratish, voqealarni yoritish, fikr bildirish va axborotni tarqatish jarayoniga bevosita jalb etilishi fuqarolik jurnalistikasini zamonaviy media tizimining muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Bunda auditoriya endilikda faqat axborotni qabul qiluvchi subyekt emas, balki uning mazmunini shakllantiruvchi va ommalashtiruvchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan fuqarolik jurnalistikasida kimlarning ovozi eshitilayotgani, qaysi ijtimoiy guruhlar vakillari axborot ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashayotgani masalasi media vakilligining sifatini belgilovchi muhim mezonlardan biridir.

Mazkur kontekstda gender muvozanati masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki media makonidagi gender nisbat faqat ayollar va erkaklarning son jihatdan ishtiroki bilan cheklanmay, ularning axborot yaratishdagi faolligi, mavzularni tanlashdagi ishtiroki, jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi ta’siri hamda turli ijtimoiy rollarning media orqali qanday ifodalanishini ham qamrab oladi. Fuqarolik jurnalistikasining nisbatan ochiq va past kirish to‘siqlariga ega kommunikativ tabiati gender jihatdan turli guruhlarning o‘z nuqtayi nazarini ommaga olib chiqishi uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Biroq bunday ochiqlikning o‘zi avtomatik ravishda gender tengligini ta’minlamaydi: raqamli tafovut, texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlaridagi farqlar, ijtimoiy stereotiplar, onlayn tazyiq va o‘zini namoyon etishdagi institutsional hamda madaniy cheklovlar gender muvozanatining real holatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatini o‘rganish masalasiga faqat statistik nisbat nuqtayi nazaridan emas, balki media ishtirokining mazmuni, ko‘rinishi va ta’sirchanligi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida yondashish zarur. Ilmiy qarashlarning tadriji ham aynan shu yo‘nalishda rivojlanib, gender masalasini dastlab media vakilligi va ayollarning ommaviy axborot vositalaridagi tasviri doirasida ko‘rgan yondashuvlardan raqamli ishtirok, prosumerlik, media ishlab chiqarishdagi teng imkoniyatlar va onlayn xavfsizlik kabi ko‘p o‘lchovli masalalarni qamrab oluvchi konsepsiyalarga tomon siljidi. Natijada gender muvozanati jurnalistikaning ichki professional tarkibidan tashqari, fuqarolik axborot ishlab chiqarishining demokratik va inklyuzivlik darajasini baholash mezonlaridan biri sifatida qarala boshlandi.

Mazkur maqolaning ilmiy muammosi fuqarolik jurnalistikasining rivojlanishi sharoitida gender muvozanatiga oid ilmiy yondashuvlarning qanday shakllangani, ularning mazmunan qaysi bosqichlarda kengaygani va zamonaviy raqamli media muhitida qanday metodologik yo‘nalishlarga ega bo‘layotganini tizimli aniqlashdan iborat. Tadqiqotning maqsadi fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatini izohlovchi asosiy ilmiy yondashuvlarni tadrijiy jihatdan tahlil qilish, ularning o‘zaro farqli va uzviy jihatlarini aniqlash hamda zamonaviy media sharoitida mazkur masalani tadqiq etishning konseptual asoslarini umumlashtirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Fuqarolik jurnalistikasi fenomenining nazariy asoslari raqamli texnologiyalar auditoriyani passiv axborot iste’molchisidan axborot ishlab chiqarish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirganligi haqidagi qarashlar bilan bog‘liq. Bowman va Willis (2003) fuqarolik jurnalistikasini auditoriyaning axborot yaratish, tahrirlash va tarqatish jarayonlariga jalb etilishi orqali an’anaviy jurnalistikadagi ishlab chiqaruvchi–iste’molchi chegaralarining yumshashi sifatida izohlaydi [1]. Gillmor (2004) esa ushbu jarayonni yanada kengroq talqin qilib, internet va raqamli vositalar professional media ustidan mavjud bo‘lgan axborot monopoliyasini zaiflashtirib, oddiy fuqarolarga real vaqt rejimida axborot yaratish va tarqatish imkonini berganini asoslaydi [2].

Biroq fuqarolik jurnalistikasini faqat texnologik imkoniyatlarning kengayishi bilan izohlash yetarli emas. Carpentier (2011) media ishtirokini demokratik jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida tahlil qilib, “ishtirok” tushunchasini oddiy kontent yaratish yoki fikr bildirishdan farqlash zarurligini ko‘rsatadi. Uning yondashuvida haqiqiy

media ishtiroki subyektning nafaqat axborot jarayonida mavjud bo‘lishini, balki mazmunni shakllantirish va kommunikativ jarayonga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishini ham nazarda tutadi. Mazkur nazariy nuqtayi nazar gender muvozanatini o‘rganish uchun muhim metodologik asos beradi: ayollarning fuqarolik jurnalistikasida mavjudligi bilan ularning axborot kun tartibini shakllantirishdagi real ishtiroki bir xil hodisa emas [3], [4].

Gender va media munosabatlarini o‘rganuvchi tadqiqotlar esa muammoni vakillik, ko‘rinish va ovoz masalalari orqali chuqurlashtiradi. Global Media Monitoring Project (GMMP)ning 2025-yilgi monitoring natijalari dunyo axborot oqimida ayollarning ko‘rinishi hanuz yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi: ayollar yangiliklarda ko‘rsatilgan, eshittirilgan yoki tilga olingan shaxslarning atigi 26 foizini tashkil etgan. Muhimi, gender tafovuti faqat miqdoriy ko‘rsatkichda emas, balki ayollarning ekspert, qaror qabul qiluvchi va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi subyekt sifatidagi ishtirokida ham namoyon bo‘ladi. GMMP ma’lumotlari gender tengligi masalasining “ayollar qancha ko‘rinmoqda?” degan savoldan “ular qanday maqomda va qanday ovoz bilan ko‘rinmoqda?” degan murakkabroq savolga ko‘chayotganini ko‘rsatadi [5].

Mazkur yondashuv fuqarolik jurnalistikasiga tatbiq etilganda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki raqamli platformalarning ochiqligi ayollarga o‘z hikoyalari va ijtimoiy muammolarini bevosita jamoatchilikka yetkazish imkonini kengaytirishi mumkin, biroq platformaga kirishning mavjudligi avtomatik tarzda teng kommunikativ ta’sirni anglatmaydi. Pain (2024) Hindistondagi CGNet Swara va Video Volunteers tashkilotlari faoliyatida ishtirok etgan 65 nafar respondent bilan olib borgan chuqur intervyular asosida ayollarning fuqarolik jurnalistikasidagi ishtiroki mahalliy va resurslari cheklangan muhitlarda ham axborot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda ayol fuqarolik jurnalistlari ayollar bilan bog‘liq masalalarni yoritish bilan birga, ularni kengroq jamoaviy manfaatlar bilan bog‘lagani va boshqa ayollarni ham axborot ishlab chiqarishga jalb etuvchi tarmoqlarni shakllantirgani qayd etiladi. Shu bilan birga, patriarxal ijtimoiy munosabatlar ayollarning media ishtirokini murakkablashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi [6].

So‘nggi tadqiqotlarda gender muvozanatining mazmuni raqamli xavfsizlik va kommunikativ erkinlik masalalari bilan ham kengaymoqda. UNESCO va ICFJ tomonidan o‘tkazilgan global tadqiqotda so‘rovda qatnashgan ayol jurnalistlarning 73 foizi kasbiy faoliyati davomida onlayn zo‘ravonlikka duch kelganini bildirgan; respondentlarning bir qismi bunday hujumlarni oflayn tahdid va zo‘ravonlik bilan bog‘lagan. Bu natijalar raqamli muhitning ochiqligi gender jihatdan neytral imkoniyat emasligini, onlayn bosim esa ayollarning jamoatchilikdagi ishtiroki va o‘z fikrini erkin ifodalashiga to‘sqinlik qilishi mumkinligini ko‘rsatadi [7], [8].

2025-yilgi yangi tadqiqotlar mazkur muammoning yanada murakkablashayotganini ko‘rsatmoqda. UNESCO va UN Women hamkorligidagi tadqiqotga ko‘ra, 2020–2025-yillar oralig‘ida so‘rovda qatnashgan ayol jurnalistlar orasida onlayn zo‘ravonlikni real hayotdagi ta’qib, zo‘ravonlik yoki hujum bilan bog‘laganlar ulushi 20 foizdan 42 foizgacha oshgan; 2025-yilda respondent ayol jurnalistlarning 75 foizi ish faoliyati davomida onlayn zo‘ravonlikka duch kelganini bildirgan. Mazkur natijalar gender muvozanatini faqat vakillik yoki ishtirok ulushi orqali o‘lchashning cheklanganligini ko‘rsatib, ishtirok etish imkoniyati, xavfsizlik va o‘z-o‘zini senzura qilish darajasini ham tahlil mezonlariga kiritishni taqozo etadi [9].

O‘zbekistonda fuqarolik jurnalistikasida gender masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham mazkur ilmiy yo‘nalishning mahalliy kontekstini shakllantirmoqda. Zakirova (2025) AQSh va G‘arbiy Yevropa tajribasi misolida fuqarolik jurnalistikasida gender siyosatining yoritilishi, ayollarning media makonidagi ishtiroki, gender stereotiplari va raqamli xavfsizlik masalalarini o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar sifatida tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot fuqarolik jurnalistikasini gender siyosatini yoritish vositasi sifatida ham ko‘rib chiqishi bilan mazkur maqola mavzusiga bevosita yaqinlashadi [10].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatiga oid qarashlarning texnologik imkoniyati, media ishtiroki, vakillik va real ta’siri hamda raqamli xavfsizlik va inklyuzivlik yo‘nalishida rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Dastlabki tadqiqotlarda asosiy e’tibor fuqarolarning axborot ishlab chiqarish imkoniyatlariga qaratilgan bo‘lsa, keyingi yondashuvlarda ushbu imkoniyatlardan kimlar va qanday sharoitlarda foydalanayotgani masalasi markazga chiqdi. Zamonaviy tadqiqotlar esa gender muvozanatini miqdoriy tenglik bilan cheklamay, ayollarning axborot kun tartibini shakllantirishdagi mavqei, ekspert sifatidagi ko‘rinishi, raqamli xavfsizligi va jamoatchilik muloqotidagi real ta’siri bilan birgalikda baholash zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan, mavjud adabiyotlarda fuqarolik jurnalistikasining gender jihatdan muvozanatli ishtirokni qay darajada ta’minlashi masalasini aynan ilmiy yondashuvlarning tarixiy-tadrijiy o‘zgarishi asosida tizimlashtirish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Mazkur ilmiy bo‘shliq tadqiqotning asosiy yo‘nalishini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatining shakllanishi va ilmiy talqinidagi o‘zgarishlarni aniqlashga yo‘naltirilib, qiyosiy media tahlili, kontent-tahlil va tizimli yondashuv asosida olib borildi. Bunday metodologik uyg‘unlik fuqarolik jurnalistikasining nafaqat mazmuniy xususiyatlarini, balki gender ishtirokining ko‘lami, shakli va ifodalanish usullarini kompleks baholash imkonini beradi. Fuqarolik jurnalistikasida gender siyosatini o‘rganishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlarda ham qiyosiy media tahlili va kontent-tahlilidan birgalikda foydalanish samarali yondashuv sifatida qo‘llanilgan.

Tadqiqotning kontent-tahlil usuli orqali fuqarolik jurnalistikasi materiallarida ayollar va erkaklarning ishtiroki, ularning axborot manbasi va muallif sifatidagi mavqei, yoritilayotgan mavzular, gender stereotiplari hamda ovoz va vakillik darajasi tahlil qilindi. Ushbu mezonlar genderga sezgir media monitoringi tamoyillari bilan uyg‘unlashtirildi; xususan, UNESCO gender indikatorlari media mazmunida ayollar va erkaklarning ishtiroki, vakilligi hamda qaror qabul qilishdagi mavqeini tizimli baholash zarurligini belgilaydi.

Qiyosiy yondashuv orqali fuqarolik jurnalistikasida gender masalasining turli ilmiy bosqichlardagi talqinlari o‘zaro solishtirilib, yondashuvlarning texnologik ishtirokdan gender vakilligi, real kommunikativ ta’sir va raqamli xavfsizlik masalalarigacha kengayib borishi aniqlashtirildi. Shuningdek, tadqiqotda tizimli yondashuv gender muvozanatini alohida ko‘rsatkich emas, balki ishtirok, vakillik, mavzuga kirish, axborot yaratish imkoniyati va xavfsizlik kabi o‘zaro bog‘liq omillar majmui sifatida baholash imkonini berdi. Mazkur yondashuv gender tengligini faqat miqdoriy nisbat bilan cheklamasdan, uning mazmuniy va kommunikativ jihatlarini ham ochib beradi.

Tadqiqotning nazariy bazasi sifatida ilmiy maqolalar, xalqaro media monitoring materiallari va genderga oid metodologik qo‘llanmalardan foydalanildi. Natijalarni talqin qilishda induktiv umumlashtirish usuli qo‘llanib, alohida ilmiy qarash va empirik kuzatuvlardan fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatining umumiy rivojlanish tendensiyalari chiqarildi.

Natijalar. Raqamli platformalarning jurnalistik kommunikatsiyadagi mavqei kuchayishi fuqarolik jurnalistikasining gender muvozanatini baholash mezonlarini ham o‘zgartirmoqda. Reuters Institute’ning 2025-yilgi Digital News Report ma’lumotlariga ko‘ra, 48 ta

media bozorini qamrab olgan tadqiqotda ijtimoiy video orqali yangilik iste'moli 2020-yildagi 52 foizdan 2025-yilda 65 foizgacha oshgan, har qanday onlayn video orqali yangilik iste'moli esa 67 foizdan 75 foizgacha yetgan [11]. Bu o'zgarish fuqarolik jurnalistikasi uchun muhim, chunki axborot ishlab chiqarishning markazi matnli platformalardan vizual va video kontentga siljishi oddiy foydalanuvchining jurnalistik jarayonga kirish shakllarini kengaytirmoqda. Biroq mazkur imkoniyatdan foydalanishning o'zi gender muvozanati ta'minlanganini anglatmaydi: raqamli makonga kirish, kontent yaratish, uni auditoriyaga yetkazish va jamoatchilik e'tiborini jalb qilish bir-biridan farqli bosqichlardir.

Bu holatni global raqamli tafovut ko'rsatkichlari ham tasdiqlaydi. Xalqaro elektraloqa ittifoqining 2025-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda erkaklarning 77 foizi internetdan foydalangan bir paytda, ayollar orasidagi ko'rsatkich 71 foizni tashkil etgan; natijada internetdan foydalanayotgan erkaklar soni ayollarnikidan qariyb 280 millionga ko'p bo'lgan. Global gender paritet koeffitsiyenti 2025-yilda 0,92 darajasida qolgan va bu ko'rsatkich 2019-yildagidan yaxshilanmagan [12]. Mazkur natija fuqarolik jurnalistikasidagi gender muvozanati masalasining eng quyi — raqamli ishtirok imkoniyati bosqichida ham muammo mavjudligini ko'rsatadi. Binobarin, ayollarning fuqarolik jurnalistikasidagi nisbatan past ishtirokini faqat media sohasidagi kasbiy stereotiplar bilan izohlash metodologik jihatdan yetarli emas; internetga ulanish, qurilma va xizmatlarning narxi, raqamli ko'nikmalar ham dastlabki shart sifatida qaralishi lozim.

Shu bilan birga, raqamli muhitning texnik jihatdan ochiqligi gender jihatdan teng kommunikativ natijani kafolatlamaydi. Pain (2024) Hindistondagi fuqarolik jurnalistikasi tashkilotlarida ishtirok etgan 65 nafar respondent bilan o'tkazilgan chuqur intervyular asosida ayollar fuqarolik jurnalistikasi orqali ilgari yetarlicha ifodalanmagan ijtimoiy muammolarni jamoatchilik kun tartibiga olib chiqayotganini aniqlagan [6]. Tadqiqotning muhim natijasi shundaki, ayol fuqarolik jurnalistlari faqat "ayollar masalasi"ni emas, balki mahalliy hamjamiyat manfaatlariga daxldor kengroq muammolarni yoritgan. Demak, gender muvozanatining ijobiy natijasi ayollarning son jihatdan ko'payishidagina emas, balki axborot kun tartibining diversifikatsiyasida ham namoyon bo'ladi.

Biroq professional jurnalistika tajribasi fuqarolik jurnalistikasiga ham tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan muhim institutsional cheklovni ko'rsatadi. Reuters Institutening 2025-yilgi 12 media bozoridagi 240 ta yirik onlayn va oflayn nashrni qamrab olgan tadqiqotida yuqori lavozimdagi 171 bosh muharrirning atigi 27 foizi ayollar ekani aniqlangan, holbuki mazkur bozorlarda jurnalistlarning o'rtacha 40 foizini ayollar tashkil etadi [13]. Bu tafovut gender muvozanati muammosi faqat media faoliyatiga kirish bilan yakunlanmasligini ko'rsatadi. Ishtirok etish, ta'sir ko'rsatish va qaror qabul qilish zanjirining yuqori bosqichlariga ko'tarilish ham gender tengligining muhim mezonidir. Fuqarolik jurnalistikasida esa bu masala professional lavozim emas, balki auditoriya e'tiborini jalb qilish, mavzuni kun tartibiga olib chiqish va axborot oqimiga ta'sir ko'rsatish qobiliyati orqali namoyon bo'ladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatini uch darajada baholash maqsadga muvofiq: birinchidan, raqamli kirish va ishtirok; ikkinchidan, axborot yaratish va vakillik; uchinchidan, kommunikativ ta'sir va xavfsizlik. Birinchi darajada ITU ma'lumotlari genderlar o'rtasidagi raqamli tafovut saqlanayotganini ko'rsatsa, ikkinchi darajada ayol fuqarolik jurnalistlarining mahalliy va ijtimoiy masalalarni kun tartibiga olib chiqishi ularning vakillik funksiyasini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Uchinchi daraja esa mavjud ishtirokning qanchalik barqaror va erkin ekanini belgilaydi.

Ayniqsa, raqamli xavfsizlik masalasi ushbu uchinchi darajaning asosiy omillaridan biridir. 2025-yilda Bangladesh ayol jurnalistlari faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqot YouTube izohlari va yarim tuzilgan intervyular asosida jinsga yo'naltirilgan dezinformatsiya, jinsiy obyektlashtirish, tahdid va kiberhujumlarning ayol jurnalistlarning professional faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [14]. Shuningdek, Pokistondagi ayol jurnalistlar bo'yicha tadqiqotda onlayn ta'qib va kiberbulling kasbiy cheklovlar, diskriminatsiya va psixologik bosim bilan birgalikda namoyon bo'lishi qayd etilgan [15]. Bu natijalar fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatini faqat "kim kontent yaratyapti?" savoli bilan cheklash noto'g'ri ekanini ko'rsatadi. Muhim savol — kim o'z fikrini xavfsiz, barqaror va jamoatchilikka ta'sir qiladigan tarzda ifoda eta olyapti?

Shundan kelib chiqib, tadqiqotda gender muvozanati miqdoriy tenglikdan mazmuniy va funksional tenglikka tomon kengayuvchi hodisa sifatida talqin qilindi. Ya'ni ayollar va erkaklarning fuqarolik jurnalistikasidagi ulushi teng bo'lishi muhim bo'lsa-da, bundan ham muhimroq mezon — ularning axborot yaratishdagi mustaqilligi, mavzu tanlash imkoniyati, jamoatchilik fikriga ta'siri va raqamli xavfsizligidir. Aynan shu jihat fuqarolik jurnalistikasini an'anaviy gender-media tadqiqotlaridan farqlovchi asosiy xususiyatlardan biridir.

Fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatning ko`p bosqichli modeli

Bosqich	Asosiy me'zon	Muammoning mazmuni	Gender muvozanatidagi natija
Raqamli kirish	Internet va raqamli vositalardan foydalanish	Texnologik va infratuzilmaviy tafovut	Ishtirok uchun boshlang'ich imkoniyat
Media ishtiroki	Kontent yaratish va tarqatish	Fuqarolik jurnalistikasiga jalb etilish darajasi	Ayollar va erkaklarning axborot ishlab chiqarishdagi faolligi
Axborot vakilligi	Mavzu va nuqtayi nazarning xilma-xilligi	Ayrim guruhlarning kam yoki stereotipik ifodalanishi	Media kun tartibining diversifikatsiyasi
Kommunikativ ta'sir	Auditoriyaga yetib borish va kun tartibini shakllantirish	Ishtirokning real ta'sirga aylanishi	Gender ovozining jamoatchilikdagi salmog'i
Xavfsiz va barqaror ishtirok	Raqamli xavfsizlik va davomiylik	Onlayn tazyiq, ta'qib va o'zini cheklash xavfi	Uzoq muddatli va mazmunli gender tengligi

Manba: *Muallifning tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.*

Ushbu modelning har bir bosqichi keyingisi uchun zarur shart hisoblanadi. Raqamli kirish imkoniyati bo'lmasa, ishtirok cheklanadi; ishtirok mavjud bo'lsa-yu, axborot yaratish imkoniyati teng bo'lmasa, vakillik biryoqlama shakllanadi; vakillik mavjud bo'lsa-yu, kontent jamoatchilik kun tartibiga ta'sir qila olmasa, gender

ishtirokining kommunikativ samarasi past bo‘ladi. Nihoyat, onlayn tazyiq va xavfsizlik muammolari mavjud bo‘lgan sharoitda formal ishtirokning o‘zi uzoq muddatli gender muvozanatini ta’minlay olmaydi.

Demak, tadqiqotning asosiy natijasi shundan iboratki, fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatini baholash uchun oddiy gender nisbati yetarli metodologik ko‘rsatkich emas. Zamonaviy raqamli muhitda gender tengligi raqamli imkoniyatlardan foydalanish, axborot ishlab chiqarishdagi ishtirok, mazmuniy vakillik, kommunikativ ta’sir va xavfsiz media makonining birligi orqali baholanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, fuqarolik jurnalistikasi gender tengligini avtomatik ravishda ta’minlovchi mexanizm emas, balki tenglik uchun yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi to‘siqlarni ham yuzaga keltiruvchi ochiq, ammo ijtimoiy jihatdan notekis kommunikativ maydon sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatini faqat ayollar va erkaklarning axborot ishlab chiqarishdagi soniy nisbatlari orqali baholash metodologik jihatdan yetarli emasligini ko‘rsatdi. Gender muvozanati raqamli imkoniyatlardan foydalanish, media ishtiroki, axborotdagi vakillik, kommunikativ ta’sir hamda xavfsiz va barqaror ishtirokning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv UNESCOning genderga sezgir media indikatorlari bilan hamohang bo‘lib, gender tengligini media faoliyati va media kontentining bir-birini to‘ldiruvchi jihatlari asosida baholashni nazarda tutadi.

Tadqiqotning muhim natijasi shundan iboratki, fuqarolik jurnalistikasi ayollarning axborot makonidagi ovozini kengaytirish uchun an’anaviy media tizimlariga nisbatan yangi imkoniyatlar yaratadi, biroq raqamli makonning ochiqligi o‘z-o‘zidan gender tengligini ta’minlamaydi. Raqamli tafovut, kontentning ko‘rinuvchanligi, gender stereotiplari, onlayn tazyiq va o‘zini cheklash kabi omillar mavjud bo‘lgan sharoitda formal ishtirok real kommunikativ tenglikka aylanmasligi mumkin. Shu bois gender muvozanatini “ishtirok mavjudligi”dan “ta’sirga ega ishtirok”gacha bo‘lgan jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Ayniqsa, raqamli xavfsizlik masalasi gender muvozanatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. UNESCO ma’lumotlari onlayn zo‘ravonlik ayol jurnalistlarning kasbiy faoliyati va so‘z erkinligiga bevosita ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi; zamonaviy sharoitda esa sun’iy intellekt asosidagi deepfake, doxxing va genderga asoslangan dezinformatsiya kabi yangi xavflar ushbu muammoning ko‘lamini yanada kengaytirmoqda. Binobarin, xavfsiz kommunikativ muhit yaratilmas ekan, fuqarolik jurnalistikasidagi gender ishtirokining miqdoriy o‘sishi ham barqaror tenglikni kafolatlamaydi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Gender muvozanatini baholashning ko‘p mezonli tizimini joriy etish.
- Genderga sezgir media monitoringini kuchaytirish.
- Ayol fuqarolik jurnalistlari uchun raqamli xavfsizlik mexanizmlarini rivojlantirish.
- Gender muvozanatini “son”dan “ovoz va ta’sir” mezoniga kengaytirish.
- Mahalliy empirik tadqiqotlarni kengaytirish.

Shunday qilib, fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatining istiqboli ayollarning media makoniga kirishi bilangina emas, balki unda teng ovozga, real kommunikativ ta’sirga va xavfsiz ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lishi bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan uzviy bog‘liq bo‘lgan model mazkur jarayonni yaxlit baholash uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur yondashuv fuqarolik jurnalistikasida gender tengligini statistik ko‘rsatkichdan mazmuniy, funksional va barqaror kommunikativ tenglik darajasiga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bowman, S. and Willis, C. (2003). We media: how audiences are shaping the future of news and information. Reston, VA: The Media Center at the American Press Institute. https://studylib.net/doc/18743203/we-media---how-audiences-are-shaping-the-future-of?utm
2. Gillmor, D. (2004) We the media: grassroots journalism by the people, for the people. Sebastopol, CA: O'Reilly media. https://www.oreilly.com/library/view/we-the-media/0596007337/?utm
3. Carpentier, N. (2011). Media and participation: a site of ideological-democratic struggle. Bristol: Intellect. 408 p. https://www.jstor.org/content/oa_book_monograph/j.ctv9hj9qt?utm
4. Carpentier, N. (2011). New configurations of the audience? The challenges of user-generated content for audience theory and media participation. In: Sreberny, A. and Nightingale, V. (eds.) The Handbook of Media Audiences. Malden: Wiley-Blackwell, pp. 517–533. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1002/9781444340525.ch9
5. World Association for Christian Communication (WACC) (2025). Global Media Monitoring Project 2025. Toronto: WACC. https://waccglobal.org/our-work/global-media-monitoring-project-gmmp/?utm
6. Pain, P. (2024). “I know my work has effect.” – the rise of the woman citizen journalist in India. Communication Research and Practice, 10(1), pp. 92–107. https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/22041451.2024.2322809
7. UNESCO and ICFJ (2020). Online violence against women journalists: a global snapshot of incidence and impacts. Paris: UNESCO. https://www.unesco.org/en/world-media-trends/online-violence-against-women-journalists-global-snapshot-incidence-and-impacts?hub=612&utm
8. UNESCO (2021). Posetti, J., Shabbir, N., Maynard, D., Bontcheva, K. and Aboulez, N. The Chilling: global trends in online violence against women journalists. Paris: UNESCO. https://www.unesco.org/en/safety-journalists/safety-women-journalists?hub=416&utm
9. UNESCO and UN Women (2025/2026). Global survey reveals rising violence against women journalists. Paris: UNESCO. https://www.unesco.org/en/articles/global-survey-reveals-rising-violence-against-women-journalists?utm
10. Zakirova, O. (2025) Main directions in coverage of gender policy in citizen journalism in the USA and Western Europe, International Journal of Media and Communications in Central Asia, 11, pp. 20–33. https://media-ca.com/index.php/media/article/view/132?utm
11. Newman, N. (2025). Overview and key findings of the 2025 Digital News Report. Reuters Institute for the study of journalism, University of Oxford. https://reutersinstitute.politics.ox.ac.uk/digital-news-report/2025/dnr-executive-summary?utm
12. International Telecommunication Union (ITU). (2025). Facts and figures 2025: The Gender Digital Divide. https://www.itu.int/itu-d/reports/statistics/2025/10/15/ff25-the-gender-digital-divide/?utm
13. Ross Arguedas, A., Mukherjee, M. and Nielsen, R.K. (2025). Women and leadership in the news media 2025: Evidence from 12 markets. Reuters Institute for the Study of Journalism. https://reutersinstitute.politics.ox.ac.uk/women-and-leadership-news-media-2025-evidence-12-markets?utm
14. Nishat Parvez. (2025). Fighting gendered misinformation and harassment on social media for Bangladesh’s female journalists. Media Asia, 52(4), 618-640. https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/01296612.2025.2534739?utm
15. Gong, J. and Sharifa, H. (2024). Pakistani women journalists: occupational hazards in their intersectionalities of gender, culture and profession. Journalism Practice, 19(9), 1986–2002. https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/17512786.2024.2308538?utm